

## БАЗОВАЯ СТАНЦИЯ МОБИЛЬНОЙ СВЯЗИ - ЭТО ОСНОВА ПРОНИКНОВЕНИЯ СИГНАЛОВ В ЧЕЛОВЕЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ

**Bozorova Muxlisa Sulaymon qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika  
universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

**Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika  
universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Mubolag'a - adabiy asarda voqelikda mavjud va yõq, bõlishi dargumon shaxs, jonli va jonsiz narsa,voqia hodisalarning nisbiylik mezonlari asosida kattalashtirib, bo'rttirib aks ettirishdir. Adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol harakati yoki holatini kuchaytirib, o'quvchi ko'z oldida yorqinroq gavdalandiradi.*

**Kalit So'zlar:** *mubolag'a, mumtoz adabiyot, g'uluv, tablig'.*

**Annotation:** *Exaggeration is the enlargement and exaggeration of real events based on the criteria of relativity. By intensifying the action or situation of the artistic image depicted in the literary work, it embodies it more vividly before the eyes of the reader.*

**Key Words:** *exaggeration, classical literature, guluv, tabligh.*

Necha asrlar mobaynida o'z qudratiga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi doim she'riyat ahlining e'tibor markazida bo'lib kelgan. Ijodkor mahoratiga baho berilar ekan avvalo nimalarni tasvirlagani emas qanday tasvirlagani muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, adabiy asarda she'riy san'atlardan foydalanish har bir davrda badiiy san'atning yuksak namunasi sifatida qaralgan.

Ma'lumki she'riy san'atlar badiiy asarning hayotiyroq, tasirchanroq, ijodkor anglatmoqchi bo'lgan g'oyani kuchliroq ifodalashga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalandirishga misralar, baytlar, bandlarning nazokati musiqiyiligi va jozibadorligini taminlashga fikrni go'zal va mazmunli ifodalashga xizmat qilgan. Daho ijodkor, milliy adabiyotimizning yirik namoyondasi Alisher Navoiy ham she'riy san'atlarning barcha turlari xususan, mubolag'a san'atining tablig', ig'roq, g'uluv kabi turlaridan unumli foydalangan. Yana shuni aytib o'tish joizki, bunday she'riy san'atlar shoir mahoratini, xilma - xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini ko'z - ko'z qilish emas, balki ijodkor tafakkur daholigini, yuksak ijtimoiy - axloqiy qiyofasini jilolantirish ifodasi bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy siymosi haqida so'z borar ekan, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning quyidagi so'zlarini yodga olmasak bo'lmas: "Hech kim turkiy tilda Navoiychalik "ko'p va xo'p" yozgan emas". Darhaqiqat, shoir g'azallarining jozibasi o'zig xos nazokati hali hamon qalblarimizni junbushga keltiradi. Ko'p hollarda mubolag'a ham shu nazokatning yuzaga keltirish omili bo'lib xizmat qilgan. Mubolag'aning ko'p xillari bor. Asosiylari: tablig', ig'roq, g'uluv. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-

balog'a" asarining uchinchi qismi san'atlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda 97 ta san'at turi haqida so'z boradi. Xususan, mubolag'a san'ati haqida muallif shunday yozadi: "Bu san'at aningdek bo'lurkim bir narsaning vasfinda mubolag'ani had va g'oyatdin o'tkarurlar". Mubolag'a va uning darajalari haqida nisbatan to'liqroq ma'lumot Ataulloh Husayniyning "Badoiy us-sanoyi" asarida berilgan bo'lib, Navoiy she'r san'atlari haqida kitob yozmagan lekin deyarli barcha asarlarida ushbu san'atlardan foydalangan. Jumladan:

Mehr ko'ziga shomdek ayyom,

Mehrdek ko'ngli o'rtanib to shom. (Sabbayi Sayyor)

Bu baytda personajning ko'ziga kunduzlar shomdek ko'rinar, quyosh ko'ngli shomgacha o'rtanadi. Ya'ni mubolag'aning tablig' turi orqali personajning azob uqubatlari, ichki kechinmalari ifodalanmoqda.

Navoiy asarlarining toji bo'lmish "Xamsa"ning barcha dostonlarida mubolag'a san'ati ekspressivlikni oshirish, har tarflama mukammal bir so'z bilan aytganda komil inson obrazini yaratishda yetakchi omil bo'lib xizmat qilgan. Fikrimizning isboti sifatida "Layli va Majnun" dostonida Laylining tashqi qiyofasi ta'rifi aks etgan quyidagi misralarni havola etaman:

Ochquncha yumub ko'z ul sipah tez,

Bir - birga tegib qilurg'a xunrez.

Dema bu sipahni xayli hindu,

Chin dasti kiyiklariga mo'ndu.

Mushk oncha sochib bu ohiyu Chin,

Kim aylabdi mo'ndularini mushkin.

Yuz ravzayi xuldin nishona,

Xol andin fireb dona. (Layli va Majnun)

Ya'ni ko'z ochib yumguncha kipriklar ikki qo'shindek qon to'kmoq uchun bir - biriga tashlanadi. Bularni hind lashkari dema, balki Chin dashtining kiyiklariga qo'yilgan qator qopqonlardir. Chin kiyiklari shu qadar mushk sochadiki, u qopqonlarni ham muattar qilib yubordi. Yuzi jannat bog'laridan nishona bo'lib, undagi xol aldamoq uchun donadir. Barchamizga ma'lumki yuqoridagi hodisani aql ham qabul qilmaydi, hayotda ham bo'lishi mumkin emas. bu baytlar orqali obrazning naqadar go'zal tasvirlanganini anglash mushkul emas.

Ko'tardi orqasig'a bodponi

Nechukkim bodpo, ul dilraboni...

Chu ikki uch yig'och gom urdi shaydo,

Bo'lu olinda qasr-u havz raydo. (Farhod va Shirin)

Ig'roq - ishonish mumkin bo'lsa ham, hayotda yuz bermaydigan mubolag'a. Bunday tasirda o'quvchi voqeani ko'z oldiga keltirib, tasavvur qila oladi, biroq amalda sodir bo'lishi mumkin emas. Yuqoridagi baytda ham buni ko'rishimiz mumkin: Shirinning oti yiqilay deganda, Farhodning otni va Shirinni yelkasida ko'tarib bir necha chaqirim yo'l bosishini aqlan qabul qilib bo'lsa ham, bunday hodisa hayotda yuz berishi mumkin emas.

Alisher Navoiy nazm va nasrdagi badiiy mahoratini uning badiiy san'atlar qo'lashidan ham bilish mumkin. Zero, Navoiy badiiy san'atlarga bir vosita emas, asarning bir qismi sifatida qaraydi va barcha turidan unumli foydalanadi. Alisher Navoiy badiiy san'at qo'llashda ham me'yorga rioya qilish kerakligini ta'kidlaydi. Haddan ziyod badiiy san'atning qo'llanilishi esa, asarning badiiy jihatdan mukammalligini kamaytiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-alisher-navoiy-davri-1.html>
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/navoiy-ijodida-milliy-davlatchilik-va-huquq-davra-suhbati.html>
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mubolag%CA%BBa>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/mubolaga-keng-ommalashgan-adabiy-janr>